

# Bakalavriatura yo'nalishlari

## **60810100- Qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirish**

60810100-Qishloq xo'jaligini mexanizaesiyalashtirish ta'lif yo'nalishi-qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash sohasidagi ta'lif yo'nalishi bo'lib, u yer, suv va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalangan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirishda zamonaviy resurstejamkor mexanizatsiyalashgan texnologiyalar va texnika vositalarini qo'llash, qishloq xo'jaligi mashinalari texnologik jarayonlari, agrotexnik tadbirlar va ish sharoitidan kelib chiqib ularning maqbul turini tanlash va ulardan ratsional foydalanish, kasbiy faoliyatida qishloq xo'jaligi texnikalaridan oqilona foydalanish usul va vositalar majmuini o'z ichiga oladi. 60810100-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari: qishloq xo'jaligidagi mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish jarayonlari va mexanizatsiyalashgan texnologiyalar hamda ularda qo'llaniladigan qishloq xo'jaligi mashinalari, texnikalari, vositalari va asbob-uskunalari; qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot va o'quv-ta'lif jarayonlari, agrosanoat majmuidagi korxonalar va tashkilotlarning boshqaruvi tizimlari.

## **60112400-Professional ta'lif (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish)**

60112400-Professional ta'lif (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish) – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish jarayonlari, texnologiyalar va texnik vositalardan ratsional foydalanish, texnik servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarini tashkillashtirish va kasbiy ko'nikmaga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, uslublari va yo'llari majmuini qamrab olgan holda, kasb-hunar ta'lif tizimi jarayonini tashkillashtirish, ishlab chiqarish va kompleks masalalarni yechish bilan bog'liq kasbiy ko'nikmaga yo'naltirilgan ta'lif jarayonining vositalari, usullari, uslublari va yo'llari majmuini qamrab oladi. Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohalarining ta'lif yo'nalishi bo'yicha kasb ta'lifini o'qitish jarayonini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik darajalari, kasb ta'lifi o'qituvchisining pedagogik va texnologik tayyorgarligi, texnik texnologiyalar va vositalardan foydalanish mahorati, kasb ta'lifi bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish, loyihalash, nazorat kilish, ishlab chiqarish va pedagogik masalalarni yechish bilan bog'liq kasbiy ko'nikmaga ega bo'lish, shuningdek, ta'lif vositalari, metodlari, uslublari, shakllari va tamoyillarini tashkil etish jarayonlarida faol qatnashish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.

## **60810300- Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis**

60810300-Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lif yo'nalishi-fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalariga servis xizmat ko'rsatish jarayonlari, texnologiyalar va texnik vositalari, ulardan samarali foydalanish, texnik servisni amalga oshirish, texnik servisda logistik jarayonlarni tashkillashtirish uchun inson faoliyati vositalari, usullari, metodlari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuuni o'z ichiga oladi. 60810300-Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar ta'lif yo'nalishi negizida qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalarga servis ko'rsatish, texnik tashxis va ta'mirlash texnologiyalari, jihozlari va vositalari; mashina va jihozlarni sinash usullari, vosita va jihozlari; texnik servis tizimida logistik jarayonlar; texnik servis korxonalari faoliyati va jarayonlari; texnologik jarayonlarni shakllantirish va tekshirish; loyihalash, texnik servis, ta'mirlash va detallarni tiklash jarayonlarini tahlil qilish, sintezlash; Texnik servis tizimida avtomatlashtirish qurilmalari, mikroprotsessor va kompyuter texnologiyalarini va dasturlashdan foydalanish; dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; pedagogik faoliyatda kasbiy ta'lif pedagogikasi metodlari, vositalari va shakllarini muntazam takomillashtirib borish kabi kasbiy

faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.

---

### **60810400- Qishloq xo'jaligida innovasion texnika va texnologiyalarni qo'llash**

60810400-Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash ta'lism yo'naliishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'naliish bo'lib qishloq xo'jaligida yuqori unumdorlikka ega resurstejamkor texnologik jarayonlar, innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish, sinash, tekshirish, tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqarishga tadbiq etish kabi jarayonlarni tashkillashtirish uchun inson faoliyati vositalari, usullari, metodlari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuini o'z ichiga oladi. 60810400-Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash ta'lism yo'naliishi bo'yicha bakalavrilar ta'lism yo'naliishi negizida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yuqori unumdorlikka ega resurstejamkor texnologik jarayonlar, innovatsion texnika va texnologiyalar qo'llash; innovatsion texnika va texnologiyalar qo'llashdagi mashina va jihozlardan samarali foydalanish jarayonlari; innovatsion texnika va texnologiyalarni sinash, tekshirish, tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqarishga tadbiq etish, innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash tizimidagi avtomatlashtirilgan qurilmalar, mikroprotsessor va kompyuter texnologiyalarini yaratish va dasturlash; dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish hamda pedagogik faoliyatda kasbiy ta'lism pedagogikasi metodlari, vositalari va shakllarini muntazam takomillashtirib borish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.

---

### **60811300 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha)**

60811300-Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha) - fan va qishloq xo'jaligi sohasidagi yo'naliish bo'lib, bu yo'naliish yer, suv, havo, energiya va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalangan holda qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilgan mahsulotlar, xususan meva sabzovot va uzum maxsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash jarayonlarida qishloq infrastrukturasi ob'ektlari va texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

---

### **60711300- Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha)**

60711300 - Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha)bakalavriat ta'lism yo'naliishi - fan, texnika va ta'lism soxasidagi ta'lism yo'naliishi bo'lib, o'quv fanlari, vositalari, uslublari va pedagogic faoliyatning usullarini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash va baholash, metrologik ta'minot, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, sifat tizimini ishlab chiqarishga joriy etish, korxonalarda metrologik xizmat, sifat nazoratini tashkil etish, ekspertiza o'tkazish, ishlab chiqarish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini pedagogik faoliyatda foydalanishni o'z ichiga oladi.